



# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

2017 yil yanvar-sentabr

E'tibor bering:

- Aholi soni yil boshidan buyon **391,4 ming kishiga** ko'paydi
- Tug'ilganlar soni **523,6 ming nafarni** tashkil etdi
- 116,9 mingta** o'lim qayd etildi
- FHDYO bo'limlarida **192,7 mingta nikoh** va **23,6 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi

O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisi soni 2017 yil 1 oktabr holatiga 32511,9 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 391,4 ming kishiga yoki 1,2 foizga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 16451,9 ming kishini (jami aholi soniga nisbatan 50,6 %), qishloq aholisi soni 16060,0 ming kishini (jami aholi soniga nisbatan 49,4 %) tashkil etdi.

**Tug'ilish.** 2017 yilning yanvar-sentabr davrida 523,6 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 21,7 promilleni tashkil qildi va 2016 yilning mos davriga nisbatan 0,7 promillega kamaydi (2016 yilda 22,4 promille bo'lgan).

**O'lim.** 2017 yilning yanvar-sentabr oylarida 116,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda o'lim koeffitsiyenti 4,8 promilleni tashkil etdi.



**Tug'ilish: 523,6 mingta**


**O'lim: 116,9 mingta**



**O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari 2017 yil yanvar-sentabr uchun**  
(1000 aholiga; promille)





**Tabiiy o'sish: 406,7 ming kishi**




## Demografik holat

### O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari 2017 yil yanvar-sentabr uchun (ming kishi)



### O'lganlarning o'lim sabablari bo'yicha taqsimlanishi (foizda)



Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi soni 6,1 mingtani va bolalar o'limi koeffitsiyenti 11,2 promilleni tashkil etdi.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha o'lgan jami bolalarning 57,4 foizi perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 21,6 foizi - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 11,4 foizi - tug'ma anomaliyalardan, 3,1 foizi - yuqumli va parazitari kasalliklardan, 1,6 foizi - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0,4 foizi - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,5 foizi - boshqa kasalliklardan vafot etgan.


## Demografik holat




**Nikoh va ajrimlar.** 2017 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 192,7 mingta nikoh va 23,6 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan. Respublika bo'yicha nikoh tuzish koeffitsiyenti 8,0 promilleni, nikohdan ajralish koeffitsiyenti esa 1,0 promilleni tashkil etdi.

### O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha ro'yxatga olingan nikoh va nikohdan ajralishlar soni 2017 yil yanvar-sentabr uchun (mingta)

**Tuzilgan nikohlar**



**Nikohdan ajralishlar**



**Migratsiya.** 2017 yilning yanvar-sentabr davrida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 120,8 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 136,1 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 15,3 ming kishini tashkil etdi (2016 yilda minus 20,7 ming kishi bo'lgan).

### Aholi migratsiya natijalari

	ming kishi	
	2016 yil yanvar-sentabr	2017 yil yanvar-sentabr
<b>Ko'chib kelganlar</b>	106,6	120,8
<b>Ko'chib ketganlar</b>	127,3	136,1
<b>Migratsiya saldosini</b>	-20,7	-15,3

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Toshkent (minus 4,8 ming kishi), Samarqand (minus 3,9 ming kishi), Qashqadaryo (minus 3,4 ming kishi) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (minus 3,4 ming kishi) qayd etildi.

Davlat statistika qo'mitasining  
Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:

**B.Shodiyev**  
(71) 230-80-65